



FUNDAMENTALS OF ENGLISH TEACHING IN HIGHER EDUCATION IN THE NOPHYLOLOGICAL DIRECTIONS

Saydaliyeva Mamura Ibragimovna

Teacher of the Department of Foreign Languages in Natural Sciences, FarSU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4978677>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

foreign, English,
methodology,
foundation, modern,
method, innovation,
intellect, education,
system.

ABSTRACT

The article describes the basics of teaching a foreign language, ie English, in non-philological areas of higher education, and ideas on how to organize a lesson in an easy and convenient way for students, taking into account that today it is the most basic, necessary science.

OLIV TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI O'QITISH ASOSLARI NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA

Saydaliyeva Mamura Ibragimovna¹

¹FarDU Tabiiy yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasini o'qituvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

xorijiy, ingliz tili, metodika, asos, zamonaviy, metod, inovatsiya, intellekt, ta'lim, tizim.

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta'lim tizimida nofilologik yonalishlarda chet tili ya'ni ingliz tilini o'qitish asoslari va bugungi kunda bu eng asosiy, zaruriy fan ekanligini inobatga olish talabalarga oson va qulay usulda darsni tashkil etish borasida fikrlar bayon etib o'tilgan.

Mamlakatimiz har jabhada ilg'or jahon andozalariga mos ravishda talaba yoshlarga talim berishga alohida ahamiyat qaratilishini bugungi yoshlarimiz zamonaviy ta'lim olishlari bir necha chet tillarida bemalol muloqot qila olishlari uchun hamma sharoitlar yetarli va buni davlatimizning talim tizimini o'zi talab etishi hech birimizga sir emas.

Xususan ingliz tilini o'qitish har bir yo'nalishga mos tarzda amalga oshirilmogda. Talaba yoshlar o'zlarining soxalaridan kelib chiqib oliy talim tizimida 3 yil mobaynida chet tili ayniqsa ingliz tlini o'rganadilar bu esa ular uchun zaruriy fanlardan biri sifatida qaraladi. Sababi jahon tillaridan biri sanalgan ingliz tili



doimo yoshlar va ularning kelajagi uchun zarur.

Oliy ta'limning salohiyatini rivojlantirish va xalqarolashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimidagi keng ko'lamli milliy islohotlarga javoban 2019 yil may oyida Britaniya Kengashi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi bilan hamkorlikda "Ishga joylashish uchun oliy ta'lim" yangi uzoq muddatli dasturini ishga tushirdi. Dasturning asosiy yo'nalishlaridan biri "Fanlarni ingliz tilida o'qitish" (EMI).

Respublikamizda 2030 yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga javoban EMI loyihasi ingliz tilida fanlarni o'qitish strategiyasini ishlab chiqish va uni O'zbekiston Oliy o'quv yurtlarida amalga oshirish uchun zarur salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Shu sababli ham bugun O'zbekiston Norwich til ta'limi instituti va 16 milliy universitetlar bilan hamkorlik qilmoqda. Dastur ingliz tilini isloh qilishning milliy dasturlariga asoslanadi va ingliz tili o'qituvchilari va boshqa fanlarni ingliz tilida o'qitadigan o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi. Shuning uchun har bir jamoda bir yoki ikkita ingliz tili o'qituvchisi, bir nechta maxsus fan o'qituvchilari va boshqa universitet vakillari bor. Ingliz tilini o'qitish uchun bir necha dastur loyihalari ham ishlab chiqilgan.

To'liq tadqiqotlar va ehtiyojlarni tahlil qilish asosida loyiha professional rivojlanish uchun yangi milliy aralash ta'lim dasturini ishlab chiqadi, bu esa ishtirokchilarni ingliz tilida yangi dasturlar yoki modullarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish qobiliyatlari, tajribalari va ishonchlari bilan ta'minlaydi.

Dastur doirasida uslubiy treninglar, interfaol va vazifalarga asoslangan yondashuvlarga e'tibor berib, ishtirokchilarga ingliz tilini o'qitishda o'ziga xos vaziyatlarda duch keladigan muammolar bo'yicha o'z

yechimlarini topishga imkoniyatlar beradigan pedagogik vositalar va o'quv materiallari ishlab chiqiladi. Dastur doirasida loyiha barcha ishtirokchilari xalqaro o'qituvchilar va talabalar uchun loyiha ishtirokchilarining doimiy kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va loyiha tadbirlarida ishtirok eta olishlari uchun NILE tomonidan ishlab chiqilgan fanlarni ingliz tilida o'qitish bo'yicha yangi onlayn ta'lim kursini o'tadilar.

2020 ning mart-may oylarida 16 universitetdan 55 nafar professor-o'qituvchilar ushbu kursda ishtirok etdilar, ularning maqsadi ishtirokchilarga ingliz tilida o'qitishda asosiy masalalarni tushunishni mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Talabalarga fanlarni ingliz tilida o'rganishlari uchun yordam beradigan turli yondashuvlardan foydalanish zarur ekanligi aytib o'tildi. Talaba yoshlar quydagilarga e'tibor berishlari uqtirildi.

O'quvchilarga kontentni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan interfaol ma'ruzalarni rejalashtirish va strategiyalarni qo'llash

Talabalarning og'zaki va yozma nutqini rag'batlantirish uchun turli xil ta'lim strategiyasidan foydalanish

Ular oliy ta'lim muassasasini tugatayotganlarida inglizcha fikrni og'zaki, yozma qabul qila olishi, tushunaolishi va og'zaki, yozma ravishda bayon qila olishi talab qilinadi. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida dars soatlarining soni shu muassasalarga oid dasturlarda beriladi. Nofilologik ta'lim muassasalarda chet tillari maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitiladi. Bunday ingliz tili maxsus nofilologik ta'lim muassasalarimiz uchun hali dastur va darsliklar ishlab chiqilmaganligi uchun o'zbek tilida o'qitiladigan bunday ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'zlari yo'nalishning xususiyatini hisobga olib, turli xil darsliklar, qo'llanmalarni tanlab foydalanmoqdalar.



O'qitish mazmuni metodikaning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi davrda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qitish mazmuni deganda: talabalar oladigan tarbiyaning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadigan bilimlar, materiallar, mashqlar va ko'nikmalar xususiyatida hajmi tushuniladi. O'quv predmetning mazmunini belgilashda asosan 2 ta umumiy talabni va ularning bir-biriga bog'liqligini esdan chiqarimaslik kerak:

1) tanlangan o'qitish mazmunini oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishish yoki erisha olmasligimiz talabi;

2) shu bizning aniq, sharoitimizda tanlangan o'qitish mazmunining talabalar tomonidan o'zlashtirish yoki o'zlashtira olmaslik talabi. Bu ikki tatalabni hisobga olib chet tili o'qitish predmetining mazmunini belgilash mumkin. Oliy ta'lim chet tillar dasturi loyihasida ingliz tili o'qitish mazmuni belgilab ko'rsatiladi. Har bir chet tili o'qituvchisi o'z ishini shu dastur asosida tashkil qilishga majburdir.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi uchun chet tillari (ingliz, nemis, fransuz) bo'yicha til materiallari tanlab olingan. To'g'ri tanlangan mazmun maqsadga erishishda katta yordam beradi. Mazmunni tanlashda o'qitish maqsadi hisobga olinadi hamda u yetakchilik qiladi. Mazmun tanlanganda til materiallari bilan birga nutq namunalari ham tanlanadi. Ular nutqni urgatishda asos bo'ladi. Mazmunni tanlashda o'qitish, o'rgatishni metodik tashkil qilish hisobga olinadi. O'qitish mazmuni, o'qitishning shart-sharoiti bilan bog'liqdir.

Chet tili o'qitish maqsadi o'qitish mazmunining hajmiga ham ta'sir etadi.

Qayta qurishda hozirgi davrda javob bermaydigan eski metod, yo'lusullarni chiqarib tashlab ta'lim-tarbiya berish, o'qitish tizimini mukammallashtirishdir. Chet tili metodikasining ilmiy saviyasini oshirish ilg'or tajribalarni ommalashtirish, lingvistikani, psixologiyani, pedagogika, psixolingvistika yangiliklari asosida metodikani qayta qurishdir. Chet tili o'qitishni amaliy yo'nalishda bo'lishi uchun o'quvchi, talaba diqqatini chet tili ustida mustaqil ishlash va malaka ko'nikmasiga qaratish lozim. Chet tili o'quv predmetining tarbiyaviy tomonini oshirish, kuchaytirish, mazmunli, tarbiyaviy xarakterdagi matnlarni, ro'znoma, oynoma maqolalarini o'qitish orqali, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy masalalarni tahlil qilish, matnning asosiy g'oyasini aniqlash orqali hamda sinfdan, oliy ta'limdan tashqari ishlar orqali amalga oshiriladi. Ular talabalarni vatanparvarlik, baynalminalchilik, do'stlik ruhida tarbiyalaydi, dunyo qarashini kengaytiradi.

Hozirgi davr kommunikativ malaka, ko'nikma chet tilida ma'lumot berish (gapirish, fikrni yozma bayon qilish orqali) va ma'lumot olish (o'qish, tinglab tushunish orqali) malaka va ko'nikmalarni yanada o'stirishni, ta'lim bilan tarbiyani birga olib borishni talab qiladi. So'ngi so'z o'rnida, tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'rgatish juda zarur, chunki talabalarni har tomonlama yetuk qilib tayyorlashda chet tilining ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. O'.Hoshimov. I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi.- Toshkent-2003.
3. www.ziyonet.uz



4. Karshiyeva T. The purpose of teaching foreign languages in non-linguistic educational institutions. In this article it was clarified the purpose of teaching foreign languages in non-linguistic educational institutions.